



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



TIL LUG‘AT TIZIMI TADQIQIGA INNOVATSION YONDASHUV

Qurbanova Munavvara Abdujabborovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

E-mail: munavvara2013@yandex.ru

Annotatsiya: Maqolada inklyuziv ta’lim tizimida o‘zbek tili o‘zlashgan qatlamiga oid leksik birliklar audiovizual lug‘atining ahamiyati bayon etilgan, mobil ilova ko‘rinishidagi o‘zlashma so‘zlar interaktiv lug‘atini ishlab chiqishga doir tadqiqot loyihasida innovatsion texnologiya, usul va yondashuvlardan foydalanish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar berilgan.

Kalit so‘zlar: leksik birlik, o‘zlashma so‘z, interaktiv lug‘at, audiovizual mahsulot, inklyuziv ta’lim, lingvovidaktika, kompyuter leksikografiyası, korpus lingvistikası.

Til lug‘at tarkibining muayyan qismini o‘zlashma so‘zlar tashkil qiladi. O‘zlashgan qatlamga xos leksik birliklarni og‘zaki va yozma nutq orqali o‘z o‘rnida to‘g‘ri ifodalash uchun bosma shakldagi leksikografik manbalar bilan bir qatorda, ularning audiovizual kontentini shakllantirish ham talab etiladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tili o‘zlashgan qatlamiga oid so‘zlar lug‘atini yaratish borasida muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. O‘zbek leksikografiyasida yaratilgan 3000 ta so‘zni o‘z ichiga oluvchi o‘quv izohli lug‘at [1,104] hamda 11000 ta so‘zdan iborat urg‘uli lug‘at [2, 988] materiallari ushbu muammo yechimi uchun ma’lum darajada xizmat qiladi. Ammo bu kabi adabiyotlarning keng jamoatchilik tomonidan samarali foydalanishi uchun to‘siksiz muhit yaratish ularni ovozlashtirish, turli xil illyustratsiyalar, diagrammalar, suratlar, videoma'lumotlar bilan boyitish va raqamlashtirishni taqozo etadi. Amerikalik olim E.M.Dyuran tomonidan olib borilgan tadqiqotda xorijiy tilni o‘rganishda foydalaniladigan hamda audio va vizual vositalarni o‘z ichiga oluvchi o‘quv qo‘llanmalari “audiovizual mahsulotlar” deb ataladi [3]. Bu turdagи mediamanbalar, ayniqsa, qo‘srimcha ehtiyojlari mavjud shaxslar o‘quv-ilmiy faoliyatida nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi Tadqiqot loyihasini amalga oshirishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

o‘zlashgan qatlamga xos leksik vositalarning zamonaliv holatini tizimli ravishda tahlil qilish, mazkur birliklarning kognitiv-pragmatik, sotsiopsixolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlarini ko‘rsatish;

leksik birliklarning asl manbayi, kirib kelish va adaptatsiya bosqichlarini belgilash orqali o‘zbek tilining global tillar bilan aloqasini ilmiy asosda yoritish;

audio-vizual vositalar orqali so‘zlarning talaffuzi, kontekstda qo‘llanilishi, noverbal muloqotdagi ifodasi bilan boyitilgan interaktiv lug‘at yaratish - bu hozircha kam o‘rganilgan yo‘nalishdir;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mobil ilova orqali foydalanuvchilar uchun qulay, interaktiv va inkluziv ta’lim vositasini joriy etish - lingvodidaktik innovatsiya hisoblanadi;

lug‘at materiallarini eshitish va ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor foydalanuvchilarga moslashtirish orqali maxsus ehtiyojli shaxslar uchun ham til o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish;

belgilangan piktogramma, subtitr, ovozli namoyish va ishoriy tarjima orqali universal dizayn tamoyillari asosida barcha uchun ochiq ta’lim platformasini yaratish;

o‘zlashma so‘zlarning global tarmoqda qo‘llanilish darajasi asosida zamonaviy sotsiopsixolingvistik jarayonlarni tahlil qilish;

innovatsion texnologiyalar, ilm-fan, madaniyat, ta’lim sohalariga oid o‘zlashma so‘zlar tavsifi hamda tasnifi orqali terminologiya va terminografiya taraqqiyotiga hissa qo‘sish.

O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning tizimli va inklyuziv lug‘atini tuzish, uni audiovizual shaklda mobil ilova orqali keng jamoatchilikka taqdim etish –tilshunoslik, axborot texnologiyalari va ta’lim sohalari chorrahasidagi dolzarb masalalardan biridir. Mazkur loyihada o‘zbek tili lug‘at boyligini chuqur o‘rganish, o‘zlashma so‘zlar qatlamini to‘liq tahlil qilish va ularni inklyuziv, ya’ni turli yoshdagи foydalanuvchilar, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ham qulay shaklda ifodalash ko‘zda tutiladi. Muammoning ilmiy yechimini ta’minlash uchun quyidagi yondashuvlar taklif etiladi.

1. Leksik-semantik tahlil asosida o‘zlashma so‘zlarni aniqlash va tizimlashtirish. Loyihada dastlabki ilmiy bosqich sifatida o‘zlashma so‘zlarning manbalarini (arab, forstojik, rus, ingliz, fransuz, turk va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar) aniqlash hamda ularni lingvistik jihatdan kategoriyalarga ajratish rejalashtiriladi. Bu jarayonda sinxron va diaxron yondashuvlar qo‘llaniladi, ya’ni, so‘zlarning zamonaviy til tizimidagi o‘rni (sinxron yondashuv) hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari (diaxron yondashuv) o‘rganiladi. Har bir so‘z semantik maydoni, denotativ va konnotativ ma’nolari, kontekstda qo‘llanish xususiyatlari asosida lug‘atga kiritiladi.

2. Korpus lingvistikasiga asoslangan tahliliy metodlar. Korpus lingvistikasi asosida yaratiladigan maxsus elektron matnlar bazasi orqali o‘zlashma so‘zlarning real nutqdagi (yozma va og‘zaki) qo‘llanish chastotasi aniqlanadi. Buning uchun O‘zbek tilining milliy korpusi, matbuot materiallari, adabiy asarlar va ijtimoiy tarmoqlardagi til birliklari tahlil qilinadi. Ushbu tahlillar yordamida foydalanuvchilar uchun eng muhim, keng qo‘llaniladigan va tushunilishi qiyin bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar saralanadi.

3. Inklyuzivlik tamoyiliga asoslangan vizual va audio kontent ishlab chiqish. Fan sohasidagi innovatsion yondashuvlardan biri lug‘atni oddiy matn shaklida emas, balki vizual va audioformatda ham tayyorlashdir. Loya ha doirasida har bir o‘zlashma so‘z uchun fonetik talaffuz, vizual tasvir yoki kontekstli video taqdim etiladi. Natijada ko‘plab ijtimoiy qatlamlarning lug‘at materiallaridan foydalanish imkoniyati kengayadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. Mobil ilova orqali interaktiv lug‘atni amaliyotga joriy etish. Mobil texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda barchaga qulay interfeysda taqdim etiladigan interaktiv lug‘at ishlab chiqiladi. Ilova quyidagi funksiyalarga ega bo‘ladi:

so‘z bo‘yicha ovozli izoh va kontekstda qo‘llanishi;

so‘zga mos piktogrammalar;

harflar bo‘yicha qidiruv.

5. Foydalanuvchi fikrlarini inobatga olgan holda doimiy yangilanish. Ilmiy yondashuvlar orasida aksiologik tamoyilga asoslangan yondashuv ham mavjud. Bunda foydalanuvchi fikrlari, til muhitidagi o‘zgarishlarni kuzatish va lug‘at bazasini shunga muvofiq tarzda muntazam ravishda yangilab borish nazarda tutiladi. Mazkur jarayonda tilshunos olimlar, tarjimonlar, pedagoglar va turli ijtimoiy qatlamlarga oid foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari asosida korpus yangilanadi.

Ushbu loyiha doirasida yakuniy natija sifatida zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan, o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlar inklyuziv audiovizual lug‘ati va uning mobil ilovasi ishlab chiqiladi. Bu mahsulot o‘z mazmuni va texnik yechimlari bilan o‘zbek tilshunosligi, ta’lim sohasi, qo‘srimcha ehtiyojlari mavjud foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan ilg‘or, amaliyotga yo‘naltirilgan texnologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Lug‘atning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

har bir o‘zlashma so‘z matnli izoh bilan birga audiotalaffuz, tasviriy element, orqali multimodal shaklda taqdim etiladi;

lug‘at tarkibiga kiruvchi so‘zlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi, ularning manba tillari, qo‘llanish chastotasi va zamonaviy til muhitidagi funksional imkoniyatlari aniqlanadi;

foydalanuvchi uchun qulay interfeysda har bir so‘z bo‘yicha ko‘pkanalli taqdimot usuli asosida materiallar birlashtiriladi.

Mobil ilovaning asosiy funksiyalari:

foydalanuvchi har bir o‘zlashma so‘zni izlash, tinglash, ko‘rish va matnli ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

lug‘at bazasi doimiy yangilanadi: foydalanuvchi fikrlari, takliflar va so‘zlar qo‘llanishiga oid statistik tahlil asosida uning tarkibi boyitib boriladi.

Tadqiqotning texnologik yangiliqi shundaki, loyiha mahsuloti o‘zbek tilshunosligida yaratiladigan birinchi multimodal inklyuziv lug‘at bo‘lib, ta’lim, lingvistika va dasturiy ta’milot sohalarining uzviy uyg‘unligi asosida tuziladi;

lug‘at va mobil ilova foydalanuvchilar tomonidan turli qurilmalarda (smartfon, planshet, kompyuter) ishlatalishi mumkin;

mahsulot platforma mustaqil bo‘lib, Android va iOS tizimlarida ishlay oladi. Bunda foydalanuvchi ma’lumotlari xavfsizligi va shaxsiylik siyosatiga amal qilinadi.

Mahsulot nafaqat tilshunoslar va talabalar, balki keng jamoatchilik, jurnalistlar, tarjimonlar, til o‘rganuvchilar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va umumta’lim maktablari uchun ham foydali vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur mahsulot orqali o‘zbek tilining





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



lug‘aviy boyligi, ayniqsa o‘zlashma so‘zlarning zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilishi chuqur o‘rganiladi va keng ommaga tushunarli tarzda, qulay shaklda yetkaziladi. Ilova o‘zbek tilini xalqaro axborot maydoniga olib chiqishda, uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishda yangi bosqichni boshlab beradi. Loyiha natijasida yuqori darajadagi innovatsion, ta’limiy va jamiyat uchun foydali bo‘lgan yangi avlod inklyuziv, multimodal, audiovizual lug‘ati hamda mobil ilovasi yaratiladi. Ushbu mahsulotni tayyorlash o‘zbek tili taraqqiyoti, o‘zlashma so‘zlar, ularning antropotsentrik xususiyatlarini tizimli ravishda tadqiq etish va keng jamoatchilikka taqdim qilish yo‘lidagi muhim qadam hisoblanadi.

O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarini inklyuziv audiovizual lug‘ati mobil ilovasi nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki bir qator amaliy sohalarda ham yuqori darajada talab etiladi. Bugungi kunda jamiyatda axborot texnologiyalari, ommaviy kommunikatsiya, ta’lim, tarjima, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va lingvistik barqarorlik sohalarida bunday mahsulotga ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Bu o‘rinda hozirgi vaqtida dars jarayonlarida differensial yondashuvga asoslangan materiallarga bo‘lgan talabning tobora ortib borayotganini ham alohida ta’kidlash joiz.

Inklyuziv ta’lim va ijtimoiy integratsiya yo‘nalishida ko‘zi ojiz hamda zaif ko‘rvuchi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan audiovizual izohlar bilan ta’minlangan lug‘at kam uchraydigan, ammo ehtiyoj yuqori bo‘lgan mahsulotdir. Aholining bu qatlami uchun o‘zbek tilida moslashtirilgan vositalar mavjud emasligi ushbu loyiha mahsulotiga talabni keskin oshiradi.

Mass-media, tarjima va axborot texnologiyalari sohalarida o‘zlashma so‘zlarning standartlashtirilgan, aniq va multimodal shaklda taqdim etilishi jurnalistlar, tarjimonlar, dasturchilar, ovozli interfeys ishlab chiquvchilar uchun ham amaliy ahamiyatga ega. AI chatbotlar, virtual yordamchilar va til modeli integratsiyasi jarayonida ushbu lug‘atdan keng foydalanish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Qolaversa, fan va innovatsiya sohasi uchun bu lug‘at o‘zbek tilining raqamli resurslari bazasini boyitadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirda O‘zbekistonda til texnologiyalariga oid 100 dan ortiq mobil ilova mavjud, biroq ularning aksariyati inklyuzivlik tamoyillariga mos emas. Shu boisdan loyiha natijasiga bo‘lgan ehtiyoj barqaror va istiqbolli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan oliv ta’lim tashkilotlari filologiya yo‘nalishi talabalariga “O‘zbek tili tarixi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” “Ona tilini o‘qitish metodikasi”, Nutq madaniyati”, “Korpus lingvistikasi”, “Kompyuter leksikografiyası” fanlariga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, mazkur fanlar bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilish, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish, shuningdek, sohaviy terminologik lug‘atlarni tuzishda foydalanish ko‘zda tutiladi.

Mazkur innovatsion loyiha doirasida yaratiladigan inklyuziv audiovizual lug‘at va uning asosidagi mobil ilova o‘zbek tilshunosligi, axborot texnologiyalari, inklyuziv ta’lim sohasining kesishish nuqtasidagi ilg‘or yechim bo‘lib, mahsulotni tijoratlashtirish salohiyati yuqori darajada baholanadi. Bu turdagи mahsulotlar nafaqat ta’lim sohasi, balki ommaviy axborot vositalari, tarjima xizmatlari, qo‘srimcha ehtiyojlarga ega axborot iste’molchilarini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



uchun teng huquqlilikni ta'minlovchi ijtimoiy loyihalarda ham keng qo'llanilishi mumkin. Avvalo, yaratilishi ko'zda tutilgan lug'at o'zlashma so'zlarga ixtisoslashgani bilan bozorda o'z segmentiga ega bo'ladi. O'zlashma so'zlar ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hayotda keng qo'llanadigan, ayniqsa, yangi texnologiyalar rivojida faol o'zlashtirilayotgan qatlam birliklari hisoblanadi. Ushbu lug'at materiallari zamonaviy o'zbek tilining so'z boyligini aks ettiradi. Shu jihatdan bu mahsulot maktab, litsey, oliy ta'lim tashkilotlari, o'quv markazlari, lingvistik texnologiyalarni ishlab chiquvchilar va nashriyotlar uchun foydali, zaruriy va tijorat qiymatiga ega resursga aylanadi. Bundan tashqari, lug'at kontentining tasviriy element va ovozli formatda bo'lishi, uni vizual va audial ta'lim uslublariga asoslangan darsliklar, mobil kurslar va elektron o'quv platformalariga integratsiya qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari yuqori darajadagi ilmiy-amaliy va ijtimoiy qiymatga ega bo'lib, to'liq funksional raqamli mahsulot sifatida xizmat qiladi. Bu orqali ijtimoiy innovatsiyalarni rag'batlantirish, til o'rganishni soddalashtirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'zlashma so'zlarini o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.
2. Qurbonova M., Abjalova M. va b. O'zbek tili o'zlashma so'zlarining urg'uli lug'ati. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Ширинова Р. Опыт создания аудиовизуального словаря свойственных национальной культуре слов //issn 2414-4452. Philology. 2017. – № 2 (8).

